



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 11 | pp. 83-90 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA MOLİYAVIY HISOBOT TUZUVCHI TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA "PUL MABLAG'LARI HARAKATI TO'G'RISIDA"GI HISOBOTNI TUZISH MASALALARI



Davlat Djurayev Djonibekovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobot tuzuvchi to'qimachilik korxonalarida "pul mablag'lari harakati to'g'risida"gi hisobotni tuzish masalalari yoritilgan. "Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot" tushunchasiga iqtisodchi-olimlar va soha mutaxassislarining ta'rifi va yondashuvlari tadqiq qilingan. "Osiyo grant tekstil" MChJda segmentlar bo'yicha sof pul oqimlari tahlil qilingan. Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotni tuzishni yaxshilash bo'yicha xulosalar shakllantirilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, moliyaviy hisobot, to'qimachilik korxonalari, pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot, segment, operatsion faoliyat, investitsion faoliyat, moliyaviy faoliyat.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы составления отчета о движении денежных средств на текстильных предприятиях, подготавливающих финансовую отчетность на основе международных стандартов. Изучаются определение и подходы экономистов и отраслевых экспертов к концепции «отчета о движении денежных средств». Анализируются чистые денежные потоки по сегментам ООО «Осиyo Grant Tekstil». Сделаны выводы и разработаны рекомендации по улучшению составления отчета о движении денежных средств.

Ключевые слова: международные стандарты финансовой отчетности, финансовая отчетность, текстильные предприятия, отчет о движении денежных средств, сегмент, операционная деятельность, инвестиционная деятельность, финансовая деятельность.

Abstract. This article examines the preparation of cash flow statements at textile companies that prepare financial statements based on international standards. It examines the definition and approaches of economists and industry experts to the concept of a "cash flow statement." The net cash flows by segment of Osiyo Grant Tekstil LLC are analyzed. Conclusions are drawn and recommendations for improving the preparation of cash flow statements are developed.

Keywords: International Financial Reporting Standards, financial reporting, textile companies, cash flow statement, segment, operating activities, investing activities, financing activities.

Kirish

"To'qimachilik bozori hajmi 2024-yilda 1825,76 milliard AQSh dollarini tashkil etdi va to'qimachilikdan olinadigan umumiy daromad 2025-yildan 2032-yilgacha 7,7 % ga

o'sib, qariyb 3304,98 milliard AQSh dollariga yetishi kutilmoqda" [1]. Statistika milliy qomitasi ma'lumotlariga ko'ra, "mamlakatda to'qimachilik mahsulotlari 89,5 trillion so'm, kiyim-kechak esa 33,8 trillion so'mga ishlab chiqarildi (jami 123,3 trillion so'm), bu esa qayta ishlash sanoatining 16,4% ni tashkil etdi. 2023-yilda jami 94,6 trillion so'mlik to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechak ishlab chiqarilgan. Shu bilan birga, to'qimachilik mahsulotlari eksporti 2023-yilga nisbatan 6,7% ga pasaygan. 2024-yil yanvar-dekabr oylarida eksport \$2,87 milliardni tashkil etdi. To'qimachilik mahsulotlari eksportining tuzilmasida asosiy ulushni iplar (43,2%) va tayyor to'qimachilik mahsulotlari (39,2%) egallaydi" [2].

Jahon amaliyotida "Pul mablag'lari harakati to'g'risida"gi hisobotni tuzish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Raqamli texnologiyalar va analitik dasturiy ta'minotlardan foydalanish samaradorligini oshirish, pul oqimlari prognozlash modellarini takomillashtirish, risklarni baholashning ilg'or metodologiyalarini joriy qilish, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga muvofiqlik darajasini ta'minlash ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari bo'lib hisoblanadi.

Xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobot tuzuvchi to'qimachilik korxonalarida "Pul mablag'lari harakati to'g'risida"gi hisobotni tuzishda "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 8-oktabrdagi "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i va uning 1-ilovasi" [3] muhim normativ-huquqiy asos hisoblanadi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda turli shakldagi to'qimachilik korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, pul mablag'larining yetishmovchiligini oldini olish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu esa pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot tuzish masalalarini tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi. Pul mablag'larining harakatini tartibga solish, ularning nazoratini samarali tashkil etish, yangi manbalarni izlab topish va ularning holatini muntazam tahlil qilish, shuningdek, pul oqimlari harakati to'g'risidagi hisobotni xalqaro tajribalar asosida tuzishni ta'minlash borasida yangi yondashuvlarni tatbiq etishning obyektiv zarurligi tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Mamlakatimizda MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzayotgan korxonalar soni oshib bormoqda. Chunki, moliyaviy hisobotning shaffofligini oshirishga erishish faqat MHXS'larga o'tish orqali amalga oshirilishi mumkin. Shu boisdan, buxgalteriya hisobi xalqaro tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar hamda ilg'or instrumentlar va tajribalardan foydalanish kun tartibidagi muhim masalalardan hisoblanadi.

«Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish va taqdim etish uchun xalqaro amaliyotda IAS 7 Statement of Cash Flows («Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot» nomli 7-son buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (BHXS)) talablari va qoidalariga amal qilinadi» [4]. 7-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti "Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot"ga ko'ra: «Pul mablag'lari harakati hisoboti moliyaviy hisobotning umumlashgan daromad, moliyaviy holat va kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobotlar qatoridagi asosiy hisobotlaridan biri hisoblanadi. U hisobot davrida pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari tarkibidagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni, hisobot davridagi pul oqimlarini operatsion, investisiya va

moliyaviy faoliyatlar bo'yicha tasniflash orqali yoritib beradi» [4].

Iqtisodchi olim S.N.Tashnazarovning ““Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi tadqiqotining «Pul oqimlari haqidagi hamda xususiy kapitalning o'zgarishi to'g'risidagi hisobotlarning mazmuni va tarkibi» nomli uchinchi bobida ilg'or xorijiy tajribalar asosida pul oqimlari haqidagi hisobotning metodologik asoslari yoritilgan. Hisobotning «valyuta mablag'larining harakati to'g'risidagi ma'lumotnoma»ning kiritilgan qismida 303-satr «Ustav kapitaliga qo'shilgan hissa», 304-satr «Aksiyalarning xorijiy aksiyadorlarga sotilishi», 306-satr «Olingan moliyaviy yordamlar»ni aks ettirish bayon qilingan. Bundan tashqari, ma'lumotnomaning chiqim qismida 311-satrni «Chet el valyutasini milliy valyutaga almashtirish», 316-satr «xorijiy aksiyadorlarga dividendlarni o'tkazib berish»larni kiritish zaruriyati asoslanganligi» [5] yoritilgan. Tadqiqotda pul oqimlari haqidagi hisobotning tarkibiy qismlari bo'yicha yondashuvlar ilmiy tahlil qilingan.

Iqtisodchi olim Sh.N.Fayzievning fikriga ko'ra, «pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot - hisobot davridagi ayrim xo'jalik operatsiyalarining balans xulosasi usullaridan foydalangan holda, real mablag'larning kirimi va chiqimini tushuntirib beradigan dinamik hisobotdir» [6].

Tadqiqot metodlari

Tadqiqotda iqtisodiy kuzatish, adabiyotlarni va boshqa manbalarni o'rganish kabi usullar qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar

Hozirgi kunda MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayoni mukammal holatga yetib kelgan, bunga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin, milliy hisobotga asoslanib, moliyaviy hisobotlarni MHXSga muvofiq tayyorlashning asosiy usuli bu transformasiyadir. «Moliyaviy hisobotni konvertatsiya qilish xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan belgilangan maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladi va bir qator omillarga bog'liq. Iqtisodiy adabiyotlarda MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tuzish jarayonlarining quyidagi tasnifi mavjud» [7] (1-jadval).

Mazkur tasnifdan kelib chiqib pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni transformatsiya qilish ham muhim hisoblanadi. Chunki, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda asosiy hisobot shakli hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, bir qancha hisobga doir hujjatlarida aks ettirilgan: buxgalteriya hisobi standartlari bo'yicha xalqaro komitet (BHSXK) (International Accounting Standards Committee - IASC); Evropa ekspert buxgalterlarining federatsiyasi (EEBF) (Federation des Experts Comptables Europeen - FECE); Amerika Qasamyod Qilingan Buxgalterlar Instituti (AQQBI) (American Institute Of Certified Public Accountants - AICPA); qimmatli qog'ozlar va birja operatsiyalari bo'yicha komissiya (QQBOBK) (Securities and Exchange Commission - SEC); Diplomli Buxgalterlarning Jamoat Assosiasiyasi (DBJA) - (The Chartered Association of Certified Accountants - CACA) va boshqalar.

Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotni 7-son BHXS talablariga mos ravishda tayyorlab, moliyaviy hisobotlar taqdim etiladigan har bir davrda moliyaviy hisobotlarning ajralmas qismi sifatida taqdim etishi shart.

1-jadval

MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonlarining tasnifi¹

Xususiyatlari	Transformasiya turlari
MHXSga muvofiq moliyaviy hisobot tuzish usullari	1. Moliyaviy hisobotni MHXSga o'tkazish 2. Parallel buxgalteriya hisobini yuritish 3. Boshqa buxgalteriya hisobidagi operatsiyalarni tarjima qilish 4. Aralash yondashuv
Transformasiya natijalaridan foydalanish vaqti	1. Amaldagi 2. Perespektiv 3. Retrospektiv
Ijrochilar	1. Bosh kompaniyadagi ixtisoslashgan bo'lim 2. Sho'ba korxonalaridagi ixtisoslashgan bo'lim 3. Outsorsing (yollangan mutaxassis, xo'jalik yurituvchi subyekt)
To'liqlik darajasi	1. Asosiy ma'lumotlar 2. Bo'rttirilgan 3. To'liq
Foydalanuvchi turi	1. Haqiqiy foydalanuvchi 2. Vaqtincha foydalanuvchi
Tadbirkorlik subyektlarini qamrab olish darajasi bo'yicha	1. Filiallar va tarkibiy bo'linmalar hisobotlarini transformasiya qilish 2. Tashkilotning hisobotini o'zgartirish 3. Tegishli tashkilotlar (xoldinglar) guruhining hisobotini o'zgartirish
O'tkazilgan tadbirlar ko'lamini	1. Bir tarmoqli tashkilotning hisobotlarini transformasiya qilish 2. Ko'p tarmoqli tashkilotning hisobotlarini transformasiya qilish
Transformasiya natijalaridan foydalanish ko'rsatmalari	1. Kredit resurslarini jalb qilishga qaratilgan transformasiya 2. Kompaniyaning kapitallashuvini oshirishga qaratilgan transformasiya 3. Tashkilot maqomini oshirishga qaratilgan transformasiya
Ishonch darajasi	1. Auditor tomonidan tekshirilgan transformasiya 2. Auditor tomonidan tekshirilmagan transformasiya

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimlarini faoliyat segmentlari bo'yicha chuqurlashtirilgan tahlil qilish yondashuvi asoslandi. Jumladan, korxonaning biznes jarayonlari (BJ), mahsulot turlari (MT), bozor segmentlari (BS) va mijoz guruhlari (MG) bo'yicha pul oqimlarini segmentlashtirish orqali har bir segment bo'yicha sof pul oqimi, intensivlik darajasi va foyda samaradorligi aniqlanishi lozim. "Osiyo grant texstil"

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

MChJda faoliyat segmentlari bo'yicha individual hisobotlar tuzilishni korib chiqamiz (2-jadval).


2-jadval.

“Osiyo grant tekstil” MChJda segmentlar bo'yicha sof pul oqimlari (mln. so'm)

Yillar	Operatsion faoliyat	Investitsion faoliyat	Moliyaviy faoliyat
2019	45341	-12544	-1544
2020	80321	-14556	14652
2021	154573	-8812	-873
2022	98355	12544	-4221
2023	100112	144356	3323

*Muallif tomonidan “Osiyo grant tekstil” MChJ ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

“Osiyo grant tekstil” MChJda segmentlar bo'yicha sof pul oqimlarini rasm holatida quyidagicha tasvirlash mumkin (1-rasm).



1-rasm. “Osiyo grant tekstil” MChJda segmentlar bo'yicha sof pul oqimlari

*Muallif tomonidan “Osiyo grant tekstil” MChJ ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

1-rasmda “Osiyo grant tekstil” MChJda 2019-2023 yillarda segmentlar bo'yicha sof pul oqimlarining dinamikasi ko'rsatilgan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, asosiy faoliyat segmenti barqaror va yuqori daromad keltiruvchi yo'nalish bo'lib qolmoqda (2021-yilda eng yuqori - 154 573 mln. so'm). Investitsion faoliyat bo'yicha 2019-2021 yillarda salbiy natijalarni ko'rsatgan, 2022-2023 yillarda esa ijobiy o'sishga erishgan. Moliyaviy faoliyatda pul oqimi o'zgaruvchan, ayrim yillarda zarar bilan yakunlangan.

Bugungi kunda 7-son BHXSn qo'llash quyidagi afzalliklarga ega:

- pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, boshqa moliyaviy hisobotlar bilan birgalikda foydalanilganda, foydalanuvchilarga tadbirkorlik subyektining sof aktivlaridagi o'zgarishlarni, ularning moliyaviy strukturasi (likvidligi va to'lov qobiliyati)ni va o'zgarayotgan imkoniyatlar va sharoitlarga moslashish maqsadida o'zining pul oqimlari summasi va muddatlariga ta'sir ko'rsata olish qobiliyatini baholash uchun ma'lumot bilan ta'minlaydi. U, shuningdek, turli xil tadbirkorlik subyektlarining operatsion faoliyati

ko'rsatkichlari haqidagi hisobotlarning qiyoslanuvchanligini oshiradi, chunki u bir xil operatsiya va hodisalarning turlicha hisobga olinishi oqibatlarini bartaraf qiladi;

- oldingi davrlardagi pul oqimlari to'g'risidagi axborotdan ko'pincha kelgusi pul oqimlarining summasi, muddati va aniqligining ko'rsatkichi sifatida foydalaniladi. U, shuningdek, kelgusi pul oqimlari bo'yicha oldingi baholarning to'g'riligini tekshirishda hamda foydalilik va sof pul oqimlari orasidagi bog'liqlikni va o'zgaruvchan narxlarning ta'sirini o'rganishda foydalidir.

7-sonli BHXSga binoan pul oqimlari pul mablag'lari va pul ekvivalentlarining kirimi va chiqimini o'zida aks ettiradi. Pul oqimlari pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlari tashkil topgan moddalari o'rtasidagi o'zgarishlarni o'z ichiga olmaydi, chunki ular tadbirkorlik subyektining operatsion, investision yoki moliyaviy faoliyatiga kirmaydi va pul mablag'larini boshqarishning bir qismi bo'lib xizmat qiladi. Oshiqcha pul mablag'larini ularning ekvivalentlariga investisiya qilish pul mablag'larini boshqarish bo'lib hisoblanadi. Pul oqimlari quyidagi faoliyat turlari bo'yicha kelib chiqadi (2-rasm).

Operatsion faoliyat	• tadbirkorlik subyektining asosiy daromad keltiruvchi faoliyati hamda investision va moliyaviy faoliyat hisoblanmagan boshqa faoliyat turlari
Investision faoliyat	• uzoq muddatli aktivlarning hamda pul ekvivalentlariga kirmaydigan boshqa investisiyalarning sotib olinishi va chiqib ketishi
Moliyaviy faoliyat	• tadbirkorlik sub'ektining qo'yilgan kapitali va qarz mablag'larining miqdori va tarkibidagi o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi faoliyat


2-rasm. Pul oqimlari faoliyat turlari²

7-sonli BHXSga binoan pul oqimlari pul mablag'lari va pul ekvivalentlarining kirimi va chiqimini o'zida aks ettiradi. Pul oqimlari pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlari tashkil topgan moddalari o'rtasidagi o'zgarishlarni o'z ichiga olmaydi, chunki ular tadbirkorlik subyektining operatsion, investision yoki moliyaviy faoliyatiga kirmaydi va pul mablag'larini boshqarishning bir qismi bo'lib xizmat qiladi. Oshiqcha pul mablag'larini ularning ekvivalentlariga investisiya qilish pul mablag'larini boshqarish bo'lib hisoblanadi. Pul oqimlari quyidagi faoliyat turlari bo'yicha kelib chiqadi (3-rasm).

Moliyaviy hisobotda buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini aks ettirishda pul mablag'lari kirimi va chiqimini to'g'ri va aniq aks ettirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi ta'kidlanganlar esa har bir kirim va chiqim hujjatlari, shartnomalar, qimmatli qog'ozlar va boshqa shu kabi pul mablag'larining harakatini muntazam ravishda o'rganish lozimligini ko'rsatadi.

Pul mablag'lari harakati hisobini yuritishda asosan «taxmin» atamasiga to'xtalmay haqiqatda yuzaga kelgan holatlar inobatga olinishi zarur.

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



3-rasm. Operatsion faoliyatdan pul oqimlari³

Pul mablag'lari oqimini prognozlashtirish (Cash Flow) amalga oshirilganda esa asosan kelayotgan davr uchun kutilayotgan pul tushumlari inobatga olinishi lozim.

Xulosa

Shunday qilib, pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzishda 7-son BHXS talablari asosida tadbirkorlik subyekti moliyaviy holati va likvidligini tushunish uchun foydalanuvchilarga qo'shimcha ma'lumotlar berilishini yo'lga qo'yish taklif qilinadi. Bu ma'lumotlarni ochib berish, rahbariyat izohlari bilan birgalikda, ma'qullanadi va o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- mablag'lardan foydalanishda cheklovlar mavjud bulsa, ularni ko'rsatgan holda, kelgusi operatsion faoliyatida va kapital bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun foydalanish mumkin bo'lgan ishlatilmagan qarz mablag'lari summasi;
- operatsion imkoniyatlarni saqlab turish uchun talab etiladigan pul mablag'laridan tashqari, operatsion imkoniyatlarning kengayishini ko'rsatuvchi pul oqimlarining umumiy summasini alohida aks ettirish.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlash zarur bo'lib, hisobotni tayyorlashda aniq va batafsil ma'lumotlarga tayanish moliyaviy hisobot shaffofligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Textile Market: Global Industry Analysis and Forecast (2025-2032). <https://www.maximizemarketresearch.com/market-report/textile-market>
2. <https://textileexpo.uz/uz/yangiliklar/2024-yilda-ozbekistonda-toqimachilik-ishlab-chiqarishi-osdi-lekin-eksport-67-ga-kamaydi>.
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 8-oktabrdagi "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va

³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

mazmuni to'g'risadagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i. <https://lex.uz/uz/docs/-7194594>

4. <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-7-statement-of-cash-flows/>

5. S.N.Tashnazarov. Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. 08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertasiyasi avtoreferati. Toshkent – 2019 yil.

6. Файзиев Ш.Н. Аудит финансовой отчетности. Учебное пособие, Ташкент, 2008 год. 138 с.

7. Abdurahmonov F.M., Axmedjanov K.B., Ahmadjonov A.K., Uralov T.B. «Elektr energetika tarmog'i korxonalarida MHXS asosida konsolidasiyalashtirilgan moliyaviy hisobotlarni shakllantirish, professional qarorlar qabul qilish masalalari» <https://cdn.tpp.uz/2022/03/17>

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

